**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI**

**“TASDIQLAYMAN”**
**O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor,**
**professor ____________ S.Boboyev**
**2025-yil “___” ___________**

# DORIVOR O‘SIMLIKLARNI YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI FANINING O‘QUV DASTURI

| | |
|---|---|
| **Bilim sohasi:** | 800000 – Qishloq, o‘rmon, baliq xo‘jaligi va vetenariya |
| **Ta’lim sohasi:** | 810000 – Qishloq xo‘jaligi |
| **Ta’lim yo‘nalishi:** | 60812100 - Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi |

**Toshkent – 2025**

Сканировано с CamScanner

| Fan/modul kodi<br>DO'ETM4408 | O'quv yili<br>2025-2026 | Semestr<br>7-8 | ECTS - Kreditlar<br>4-4 |
|---|---|---|---|
| **Fan/modul turi**<br>Majburiy | **Ta'lim tili**<br>O'zbek/rus | | **Haftadagi dars soatlari**<br>4-4 |

| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
|---|---|---|---|---|
| | Dorivor o'simliklar yetishtirish texnologiyasi | 96 | 144 | 240 |

2. **I. Fanning mazmuni**

***Fanni o'qitishdan maqsad*** – Respublikamizda tabiiy va madaniy holda mavjud bo'lgan, farmatsevtika sanoatida asosiy va istiqbolli keng qo'llaniladigan dorivor o'simliklarning tasnifi, ularning tabiatda tarqalishi, introduksiyasi, morfobiologiyasi, bioekologiyasini mukkamal, uzuluksiz va uzviylikda o'zlashtirilishidan iborat. Shu bilan birga dorivor o'simliklarni xom ashyosini tayyorlash va uni sifatini oshirishga qaratilgan yetishtirishning zamonaviy texnologiyalarini o'rganish, tibbiyotda dorivor o'simliklarni qo'llanilish ko'rsatkichlarini bilish, respublikada faoliyat olib borayotgan dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan o'rmon xo'jaliklari, fermerlar, dori-darmon ishlab chiqarish sanoati faoliyatlarini o'rganish yuzasidan nazariy va amaliy bilimlarni shakllantirish ko'zda tutilgan.

**Fanning asosiy vazifasi** – doriv o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash texnologiyasi sohasini yanada rivojlantirish va ushbu sohaga oid nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarni talabalarga o'rgatishdan iborat. Shuningdek, dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanidan dorivor o'simliklar yetishtiriladigan yer maydonlarini ekin ekishga tayyorlash, o'simlikni ko'paytirish usullarini aniqlash, maqbul ekish muddatlarini aniqlash, yerga ishlov berish, sug'orish me'yorlarini, xorijiy tajribalarga asoslangan xolda zamonaviy usullardan foydalanib talabalarga o'rgatishdan iborat.

**II. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)**

**II.I. Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:**

**1-MODUL**

**1-mavzu. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanining maqsadi va vazifasi.**

Qadimdan dorivor o'simliklarni qo'llanilishi, madaniylashtirilishi, O'rta Osiyo mintaqalarida dorivor o'simliklarni yetishtirish ustida olimlar tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlar. Chet el hududlaridan dorivor o'simliklarni O'zbekistonga introduksiyasi, iqlimlashtirish va ko'paytirish usullarini ishlab chiqish. Hozirgi kunda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun talablarning ortib borayotganligi haqidagi ma'lumotlar taxlili. Dorivor o'simlik xom ashyolaridan foydalanish tartibi to'g'risidagi hukumat qonun va qarorlari.

**2-mavzu. O'zbekistonda dorivor o'simliklar sohasini rivojlanish tarixi.**

O'zbekistonda dorivor o'simliklar sohasini rivojlanish tarixi, soha bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari, Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi bilan shug'ullangan mutaxassislar va olimlarni ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish.

**3-mavzu. Dorivorlik o'simliklarni o'rganishda ilmiy tadqiqot muassasalarining roli**

O'zbekistonda faoliyat olib borayotgan dorivor o'simliklarni yetishtirishga ixtisoslashgan o'rmon xo'jaliklari, fermerlar, dori-darmon ishlab chiqarish sanoati faoliyatlarini o'rganish. O'simliklarning tarkibidagi kimyoviy modalarning tuzilishi, ularning dorivorlik xususiyatlari O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan o'rganilishi. Dorivor o'simliklarning sistematikasi, introduksiyasi va akklimatizatsiyasi, morfobiologiyasi, bioekologiyasi O'zR FA Toshkent botanika bog'i tadqiq etilishi. Dorivor butalar, daraxtlar va ayrim dorivor o'simliklarning istiqbolli turlarini ilmiy asosda yetishtirish va ko'paytirish usullari O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti olimlari tamonidan amalga oshirilishi. O'rmon agentligi huzuridagi markazlashgan "Shifobaxsh" ilmiy ishlab chiqarish markazida va viloyatlardagi filiallarda, shuningdek "Dori-darmon" aksiodorlik jamiyatiga qarashli MCHJlarda dorivor va ozuqabop o'simliklarni madaniy holda yetishtirish, tayyorlash, qadoqlash va iste'molchilarga sifatli yetkazish ishlarini olib borilishi.

**4-mavzu. Yer maydonini (sug'oriladigan yerlarda) tanlash va tuproqqa ishlov berish texnologiyasi**

Dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini tanlash. Yer maydonlariga qo'yiladigan talablar (relefi, entomologik va fitopotologik ko'rsatkichlari, sug'orish tizimlari va b.q). Yerni tayyorlash va tuproqqa ishlov berish usullari. Sug'orilaligan yerlarda yer tanlash, yerni shudgorga tayyorlash, shudgorlash (usuli, muddati, sifati), yerni ekishga tayyorlash (tekislash, yumshatish, boronalash, molalash) texnologiyalari va muddatlari.

**5-mavzu. Yer maydonini (lalmikor yerlarda) tanlash va tuproqqa ishlov berish texnologiyasi**

Dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini tanlash. Yer maydonlariga qo'yiladigan talablar (relefi, entomologik va fitopotologik ko'rsatkichlari, sug'orish tizimlari va b.k). Yerni tayyorlash va tuproqqa ishlov berish usullari. Lalmi yerlarda yer tanlash, yerni shudgorga tayyorlash, shudgorlash (usuli, muddati, sifati), yerni ekishga tayyorlash (tekislash, yumshatish-boronalash, molalash) texnologiyalari va muddatlari.

**6-mavzu. *Organik dehqonchilik: dorivor o'simliklarni yetishtirishda barqaror yondashuv.***

Organik dehqonchilik barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlashning asosiy omillaridan biri hisoblanadi. U atrof-muhit ifloslanishini va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytiradi. Bundan tashqari, organik dehqonchilik tuproq hosildorligini saqlash va eroziyaning oldini olish uchun maxsus saqlash usullarini qo'llash orqali tuproqni muhofaza qiladi. Bu yondashuv kelajak avlodlar uchun tabiiy resurslarni asrab qolishga hissa qo'shadi.

**7-mavzu. Dorivor o'simliklarni ekish usullarini o'rganish.**

Dorivor o'simliklarni ekish usullarini aniqlash, tabiatda urug'lari yordamida

Сканировано с CamScanner

ko'payishga moslashganligini xisobga olgan holda urug'laridan ekish usullari. Vegetativ organlaridan mo'ylovlari, palaklari, barglari, qalamchalari, ildizpoyalari, tuganakpiyozlaridan ekish usullari o'rganish.

**8-mavzu. *Dorivor o'simliklarni maqbul ekish muddatini o'rganish.***

O'zbekistonning turli tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan xolda introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni maqbul ekish muddatlarini aniqlash.

**9-mavzu. *Dorivor o'simliklarni maqbul ekish me'yorlari va ekish sxemalarini o'rganish.***

O'zbekistonning turli tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan xolda introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni urug'laridan va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorlari va ekish sxemalarini o'rganish.

**10-mavzu. *Dorivor o'simliklarni yetishtirishda organik o'g'itlarning ahamiyati va ularning qo'llanilishi***

Dorivor o'simliklarni oziq moddalarga bo'lgan talabi. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishining jadalligi va xom ashyosini samaradorligiga, dorivor moddalarning sifatiga organik o'g'itlarning ta'siri. Organik va bakteriologik o'g'itlarni qo'llash muddatlari va me'yorlari.

**11-mavzu. *Dorivor o'simliklarni yetishtirishda mineral o'g'itlarning ahamiyati va ularning qo'llanilishi.***

Dorivor o'simliklarni oziq moddalarga bo'lgan talabi. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishining jadalligi va xom ashyosini samaradorligiga, tarkibiagi biologik faol moddalarning, sifatiga mineral o'g'itlarning ta'siri. Mineral o'g'itlarni qo'llash muddatlari va me'yorlari. Tuproqdagi mineral moddalar va mikroelementlar bilan ta'minlanishi, tuproq muxitini o'zgartirish, tuproqning havo o'tkazuvchanligini yaxshilash.

**12-mavzu. Dorivor o'simliklarni yetishtirishda almashlab ekish tizimini joriy etish**

Bir, ikki va ko'p yillik dorivor o'simliklarni xo'jalik ekinlari bilan almashlab ekish. Dorivor o'simliklarni almashlab ekish tizimlari, qisqa rotatsiyali almashlab va navbatlab ekishlar.

## 2-MODUL.

**13-mavzu. Bir yillik dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Bir yillik, dorivor o'simliklarni ekishdan oldin yerga ishlov berish, o'simlik yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larni ekishga tayyorlash, urug'larini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari. O'simlikni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**14-mavzu. Ikki yillik dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Ikki yillik dorivor o'simliklarni ekishdan oldin yerga ishlov berish, o'simlik yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larni ekishga tayyorlash, urug'larini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari. O'simlikni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**15-mavzu. Ko'p yillik dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Ko'p yillik dorivor o'simliklarni ekishdan oldin yerga ishlov berish, o'simlik yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larini va ko'chatlarini ekishga tayyorlash, urug'larini va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari. O'simlikni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**16-mavzu. Ziravor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Ziravor o'simliklarni tabiiy sharoitda keng tarqalishi va ko'payish usullari, introduksiyasi va madaniylashtirilganlik darajasi, yer ostki va ustki organlarining tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajratilishi, o'simliklarni ekishdan oldin yerga ishlov berish, o'simlik yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larini va ko'chatlarini ekishga tayyorlash, urug'larini va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari. O'simlikni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**17-mavzu. Chala buta va buta dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Dorivor chala buta, butasimon o'simliklarining tabiiy sharoitda keng tarqalishi va ko'payish usullari, introduksiyasi va madaniylashtirilganlik darajasi, yer ostki va ustki organlarining tuzilishiga ko'ra guruhlarga ajratilishi, o'simliklarni ekishdan oldin yerga ishlov berish, o'simlik yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larini va ko'chatlarini ekishga tayyorlash, urug'larini va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari. O'simlikni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**18-mavzu. Dorivor daraxtlarni yetishtirish texnologiyasi**

Daraxtlarni tabiiy sharoitda keng tarqalishi va ko'payish usullari, introduksiyasi va madaniylashtirilganlik darajasi, ekishdan oldin yerga ishlov berish, ko'chat yetishtiriladigan yer maydonlarini tuprog'ini tahlil etish, maqbul ekish muddatini aniqlash, urug'larini va ko'chatlarini ekishga tayyorlash, urug'larini va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorini o'rganish, maqbul ekish sxemasini aniqlash, yerga ishlov berish, o'g'itlash, ekish usuli, chuqurligi, ko'chatlarni parvarishi, zararkunanda va begona o'tlarga qarshi kurash choralari.

Сканировано с CamScanner

Ko'chatlarni suvga bo'lgan talabiga ko'ra sug'orish va namligini saqlash. Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me'yorlarini boshqarish.

**19-mavzu. Tog'li va tog' oldi hududlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Adir va tog' oldi hududlarida dorivor o'simliklarni tekisliklarda yetishtirilayotgan dorivor o'simliklardan farqli jihatlari. Tog'li va tog' oldi hududlarida o'sishga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi, ularni yetishtirish uchun joy tanlash, urug' va ko'chatlarni maqbul ekish muddatlari. Ekish sxemasini, qator va ko'chat orasidagi masofalarni aniqlashni o'rganish, shuningdek, ko'chatlarni terrasalarga ekish, tuproq erroziyasidan saqlash, tuproq tarkibiga ko'ra mineral va organik o'g'itlar yordamida oziqlantirish, o'simliklarning yorug'lik, namlik, haroratga bo'lgan talabini aniqlash.

**20-mavzu. Lalmikor yerlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Dorivor o'simliklarni lalmikor yerlarda yetishtirish uchun ilmiy asoslangan yangi texnologiyalarni qo'llanilishi. Dorivor o'simliklarni bioekologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda hududiy joylashtirish, lalmikor yerlarda o'sadigan begona o'tlar klassifikatsiyasi va ularga qarshi kurash, almashlab ekishning samaralari, tuproq muxitini o'zgartirish, havo o'tkazuvchanligini yaxshilash, mineral va organik o'g'itlar bilan oziqlantirish, suv rejimini boshqarish.

**21-mavzu. Sug'oriladigan yerlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Dorivor o'simliklarning maxsuldor plantatsiyalarini tashkil qilish. Chet el va mahalliy hududlardan dorivor o'simliklarni introduksiyasi va madaniylashtirish usullarini o'rganish. Iqlim va tuproq sharoitlaridan kelib chiqqan holda dorivor o'simliklarni yetishtirishning samarali usullarini tanlash va tashkil etish ishlarini o'rganish. Dorivor o'simliklarning ilmiy asosda o'g'itlash tizimi (qo'llaniladigan o'g'it turlari, me'yorlari va muddatlari). Dorivor o'simliklarni yetishtirishda qo'llaniladigan suv tejovchi texnologiyalar, sug'orish tartiblarining nazariy masalalarini o'rganish. Istiqbolli turlarni yetishtirishning agrotexnik usullarini ishlab chiqarishga tadbiq etish, yangi agrotexnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha inovatsion ishlanmalar, ma'lumotlarni izlab topish va ishlab chiqarishda qo'llash.

**22-mavzu. Sho'r yerlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Sho'rlangan yerlarda tabiiy holda o'sishga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash. O'rtacha va kuchli sho'rlangan, qumli tuproqlarda, sizot suvlariga yaqin joylarda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun tuproqqa ishlov berish, vegetativ va generativ organlaridan ko'paytiriladigan turlarni aniqlash. Ekish muddatlari, me'yorlari, ko'chat ko'karuvchanligi va saqlanishini aniqlash. Mineral va organik o'g'itlar yordamida oziqlantirish usullari, o'simliklarning yorug'lik, namlik, haroratga bo'lgan talabini aniqlash. Madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni bu hududlarga introduksiyasi va akklimatizatsiyasini o'rganish.

**23-mavzu. Botqoqlashgan va suvli muhitda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Botqoqlashgan tuproqlarda va suvli muhitda tabiiy holda o'sishga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash. Sun'iy ko'llar va hovuzlarni hamda suvda o'sadigan dorivor o'simliklarni ekishga tayyorlash. O'simliklarni qo'paytirish va yetishtirishda organik, mineral o'g'itlardan foydalanish. Zararkunanda va begona o'tlardan himoyalash, gidrofit o'simliklarning yorug'lik, namlik, haroratga bo'lgan talabi.

**24-mavzu. Issiqxonalarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi**

Issiqxonalarga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash. Issiqxonalarda o'sadigan dorivor o'simliklarni ekishga tayyorlash. O'simliklarni qo'paytirish va yetishtirishda organik, mineral o'g'itlardan foydalanish. Zararkunanda va begona o'tlardan himoyalash, gidrofit o'simliklarning yorug'lik, namlik, haroratga bo'lgan talabi.

**III. Amaliy mashg'ulotlari bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

*Amaliy mashg'ulotlar uchun quyidagi mavzular tavsiya etiladi:*

**1-MODUL**

*1. Babchi (Psoralea corylifolia L.) (o'zb. Yong'oq bargli oqquray) ni yetishtirish texnologiyasi.*

2.Qalampir yalpiz – *Mentha piperita* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

3.O'tkir bargli sanno – *Senna acutifolia* Del. ni yetishtirish texnologiyasi.

4.Dorivor moychechak – *Matricaria chamomilla* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

*5. Basella (Basella alba (L.) Stewart Syn. B. rubra Linn) (o'zb. oq bazella) ni yetishtirish texnologiyasi.*

6.Dorivor tirnoqgul – *Calendula officinalis* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

7.Bo'yoqdor ro'yan - *Rubia tinctorum* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

*8. Coptis (Coptis teeta Wall.) (o'zb. Koptis teeta) ni yetishtirish texnologiyasi.*

*9. Belladonna (Atropa acuminata Royle ex Lind.) (o'zb. Hind belladonnasi) ni yetishtirish texnologiyasi.*

*10. Cinchona (Cinchona officinalis Linn.) (o'zb. Dorivor sinxona) ni yetishtirish texnologiyasi.*

11. Dalachoy, qizilpoycha, choy o'ti– *Hypericum perforatum* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

12. Turkiston arslonquyrug'i – *Leonurus turkestanicus* ni yetishtirish texnologiyasi.

**2-MODUL**

*13. Dioscorea (Dioscorea deltoidea Wall.) (o'zb. Deltasimon yams)ni yetishtirish texnologiyasi.*

14. Yaxlit qirrali zirk, Qizilzirk – *Berberis integerima* Bunge. ni yetishtirish texnologiyasi

15. Dorivor rozmarin – *Rosmarinus officinalis* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

*16. Ergot Of Rye (Claviceps purpurea (Fr.) Tul.) (o'zb. Qizil shoxkuya) ni*

Сканировано с CamScanner

*yetishtirish texnologiyasi.*

17. Jumrutsimon chakanda - *Hippophae rhamnoides* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

18. Itburun na'matak – *Rosa canina* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

*19. Bo'yoqli basma (Inigofera tinctoria L) ni yetishtirish texnologiyasi.*

20. Yapon soforasi – *Sophora japonica* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

21. Ikki bo'lakli ginkgo – *Ginkgo biloba* L. ni yetishtirish texnologiyasi.

*22. Bog' balzami (Impatiens balsamina L.) ni yetishtirish texnologiyasi.*

*23. Turkiston do'lanasi – Crataegus turkestanica Pojark. ni yetishtirish texnologiyasi.*

*24. Ipecacuanha (Cephaelis ipecacuanha (Brot.) A. Rich.) o'zb Ipekakuana)Syn. Ipecacuanha Stokes psixotrisi. ni yetishtirish texnologiyasi*

Amaliy mashg'ulotlar multimedia qurulmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akadem guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi lozim. Mashg'ulotlar faol va interfaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

**IV. Fanning tarkibiy tuzilishi:**

**4.1 Ma'ruza mashg'ulotlari**

| Dars | Mavzular | Ma'ruza mashg'ulotlar rejasi | Ma'ruza mashg'ulot-lari soati |
|---|---|---|---|
| | | **1-MODUL** | |
| 1 | Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanining maqsadi va vazifasi | 1. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanining maqsadi. 2. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi fanining vazifasi. | 2 |
| 2 | O'zbekistonda dorivor o'simliklar sohasini rivojlanish tarixi. | 1. O'zbekistonda dorivor o'simliklar sohasini rivojlanish tarixi, soha bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy tadqiqot ishlari., 2. Dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi bilan shug'ullangan mutaxassislar va olimlarni ilmiy tadqiqot ishlari bilan tanishish. | 2 |
| 3 | Dorivorlik o'simliklarni o'rganishda ilmiy tadqiqot muassasalarining roli | 1. O'simliklarning tarkibidagi kimyoviy modalarning tuzilishi, ularning dorivorlik xususiyatlari O'zR FA O'simlik moddalari kimyosi instituti olimlari tomonidan o'rganilishi. 2. Dorivor o'simliklarning sistematikasi, introduksiyasi va akklimatizatsiyasi, morfobiologiyasi, bioekologiyasi O'zR FA Toshkent botanika bog'i tadqiq etilishi. 3. Dorivor butalar, daraxtlar va ayrim dorivor o'simliklarning istiqbolli turlarini ilmiy asosda yetishtirish va ko'paytirish usullari O'rmon xo'jaligi ilmiy tadqiqot instituti olimlari hamda O'rmon agentligi huzuridagi markazlashgan "Shifobaxsh" ilmiy ishlab chiqarish markazi olimlari tomonidan amalga oshirilishi. | 2 |
| 4 | Yer maydonini (sug'oriladigan yerlarda) tanlash va tuproqqa ishlov berish texnologiyasi | 1. Dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini tanlash. 2. Yer maydonlariga qo'yiladigan talablar (relefi, entomologik va fitopotologik ko'rsatkichlari, sug'orish tizimlari va b.k). 3. Yerni tayyorlash va tuproqqa ishlov berish usullari. | 2 |
| 5 | Yer maydonini (lalmikor yerlarda) tanlash va tuproqqa ishlov berish texnologiyasi | 1. Dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun yer maydonlarini tanlash. 2. Yer maydonlariga qo'yiladigan talablar (relefi, entomologik va fitopotologik ko'rsatkichlari, sug'orish tizimlari va b.k). 3. Yerni tayyorlash va tuproqqa ishlov berish usullari | 2 |
| 6 | Organik dexqonchilik: Dorivor o'simliklarni yetishtirishda barqaror yondashuv. | 1. Organik dehqonchilik barqaror rivojlanish va ekologik muvozanatni ta'minlashning asosiy omillari. 2. Atrof-muhit ifloslanishini va qayta tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanishni kamaytirish. | 2 |
| 7 | Dorivor o'simliklarni ekish usullarini o'rganish | 1. Dorivor o'simliklarni ekish usullarini aniqlash. 2. Tabiatda urug'lari yordamida ko'payishga moslashganligini xisobga olgan holda urug'laridan ekish usullari. 3. Vegetativ organlaridan mo'ylovlari, palaklari, barglari, qalamchalari, ildizpoyalari, tuganakpiyozlaridan ekish usullari o'rganish. | 2 |
| 8 | Dorivor o'simliklarni maqbul ekish muddatini aniqlash. | 1. Dorivor o'simliklar urug'idan, ko'chatidan ekishni tashkillashtirish 2. O'zbekistonning turli tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan xolda introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni maqbul ekish muddatlarini aniqlash. | 2 |
| 9 | Dorivor o'simliklarni maqbul ekish me'yorlari va ekish sxemalarini o'rganish. | 1. O'zbekistonning turli tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan xolda introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni urug'laridan va ko'chatlarini maqbul ekish me'yorlarini aniqlash. 2. O'zbekistonning turli tuproq va iqlim sharoitlaridan kelib chiqqan xolda introduksiya qilingan va madaniylashtirilgan dorivor o'simliklarni urug'laridan va ko'chatlarini maqbul ekish sxemalarini aniqlash. | 2 |
| 10 | Dorivor o'simliklarni yetishtirishda organik o'g'itlarning ahamiyati va ularning qo'llanilishi | 1. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishining jadalligi va xom ashyosini samaradorligiga, dorivor moddalarning sifatiga organik o'g'itlarning ta'siri. 2. Organik o'g'itlarni qo'llash muddatlari va me'yorlari. | 2 |
| 11 | Dorivor o'simliklarni yetishtirishda mineral | 1. O'simliklarning o'sishi, rivojlanishining jadalligi va xom ashyosini samaradorligiga, | 2 |

Сканировано с CamScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | o‘g‘itlarni ahamiyati va ularning qo‘llanilishi | dorivor moddalarning sifatiga mineral o‘g‘itlarning ta’siri.<br>2. Mineral o‘g‘itlarni qo‘llash muddatlari va me’yorlari. | |
| 12 | Dorivor o‘simliklarni yetishtirishda almashlab ekish tizimini joriy etish | 1.Bir, ikki va ko‘p yillik dorivor o‘simliklarni xo‘jalik ekinlari bilan almashlab ekish.<br>2.Dorivor o‘simliklarni almashlab ekish tizimlari, qisqa rotatsiyali almashlab va navbatlab ekishlar. | 2 |
| | **Jami:** | | **24** |
| | | **2-MODUL** | |
| 13 | Bir yillik dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Efemer, bir yillik, dorivor o‘simliklarni tabiatda urug‘lari yordamida ko‘payishga moslashganligini xisobga olgan holda urug‘laridan ko‘paytirish usullari.<br>2. Urug‘larni ekishga tayyorlash, yerga ishlov berish, almashlab ekishning o‘rni, o‘g‘itlash, ekish muddati, usuli, me’yori, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o‘tlarga qarshi kurash choralari.<br>3. O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabiga ko‘ra sug‘orish va namligini saqlash.<br>4.Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me’yorlarini boshqarish. | 2 |
| 14 | Ikki yillik dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Ikki yillik dorivor va zirovor o‘simlik turlari tabiatda urug‘lari yordamida ko‘payishga moslashganligini xisobga olgan holda urug‘laridan ko‘paytirish usullari.<br>2. Urug‘larni ekishga tayyorlash, yerga ishlov berish, almashlab ekishning o‘rni, o‘g‘itlash, ekish muddati, usuli, me’yori, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o‘tlarga qarshi kurash choralari.<br>3. O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabiga ko‘ra sug‘orish va namligini saqlash.<br>4.Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me’yorlarini boshqarish. | 2 |
| 15 | Ko‘p yillik dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Ko‘p yillik dorivor va zirovor o‘simlik turlari tabiatda urug‘lari yordamida ko‘payishga moslashganligini xisobga olgan holda urug‘laridan ko‘paytirish usullari.<br>2. Urug‘larni ekishga tayyorlash, yerga ishlov berish, almashlab ekishning o‘rni, o‘g‘itlash, ekish muddati, usuli, me’yori, chuqurligi, ekinlarni parvarishi, zararkunanda va begona o‘tlarga qarshi kurash choralari.<br>3. O‘simliklarning suvga bo‘lgan talabiga ko‘ra sug‘orish va namligini saqlash.<br>4.Tuproqning suv, havo, issiqlik va oziq me’yorlarini boshqarish. | 2 |
| 16 | Ziravor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Ziravor o‘simliklarini tabiiy sharoitda keng tarqalishi va ko‘payish usullari<br>2.Introduksiyasi va madaniylashtirilganlik | 4 |
| | | darajasi, yer ostki va ustki organlarining tuzilishiga ko‘ra guruhlarga ajratilishi, urug‘ va ko‘chatlarini yekishga tayyorlash | |
| 17 | Chala buta va buta dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Dorivor chala buta, butasimon o‘simliklarining urug‘chiligi, ko‘chat yetishtirishning samarali usullarini qo‘llash.<br>2. Yetilgan ko‘chatlarni kuzda yoki erta bahorda ekish sxemasini, qator orasi va ko‘chat orasidagi masofalarni aniqlash<br>3. Ko‘chatzorlarning tiplari, tuproqqa, ko‘chat oralariga ishlov berish, o‘g‘itlarni qo‘llash, sug‘orish. | 2 |
| 18 | Dorivor daraxtlarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Daraxtlarni tabiiy sharoitda keng tarqalishi va ko‘payish usullari, introduksiyasi va madaniylashtirilganlik darajasi<br>2. Yetilgan ko‘chatlarni kuzda yoki erta bahorda ekish sxemasini, qator orasi va ko‘chat orasidagi masofalarni aniqlash<br>3. Ko‘chatzorlarning tiplari, tuproqqa, ko‘chat oralariga ishlov berish, o‘g‘itlarni qo‘llash, sug‘orish. | 2 |
| 19 | Tog‘li va tog‘ oldi hududlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Adir va tog‘ oldi hududlarida dorivor o‘simliklarni tekisliklarda yetishtirilayotgan dorivor o‘simliklardan farqli jihatlari.<br>2. Tog‘li va tog‘ oldi hududlarida o‘sishga moslashgan dorivor o‘simliklarni botanik tasnifi, ularni yetishtirish uchun joy tanlash, urug‘ va ko‘chatlarni optimal ekish muddatlari<br>3. Ekish sxemasini, qator va ko‘chat orasidagi masofalarni aniqlashni o‘rganish, shuningdek, ko‘chatlarni terrasalarga ekish, tuproq erroziyasidan saqlash, tuproq tarkibiga ko‘ra mineral va organik o‘g‘itlar yordamida oziqlantirish, o‘simliklarning yorug‘lik, namlik, haroratga bo‘lgan talabini aniqlash. | 2 |
| 20 | Lalmikor yerlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Dorivor o‘simliklarni lalmikor yerlarda yetishtirish uchun ilmiy asoslangan yangi texnologiyalarni qo‘llanilishi<br>2. Dorivor o‘simliklarni bioekologik xususiyatlarini xisobga olgan xolda hududiy joylashtirish, sug‘orilmaydigan yerlarda o‘sadigan begona o‘tlar klassifikatsiyasi va ularga qarshi kurash, almashlab ekishning samaralari, tuproq muxitini o‘zgartirish, havo o‘tkazuvchanligini yaxshilash, mineral va organik o‘g‘itlar bilan oziqlantirish, suv rejimini boshqarish. | 2 |
| 21. | Sug‘oriladigan yerlarda dorivor o‘simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Dorivor o‘simliklarning maxsuldor plantatsiyalarini tashkil qilish.<br>2. Chet el va mahalliy hududlardan dorivor o‘simliklarni introduksiyasi va madaniylashtirish usullarini o‘rganish.<br>3. Iqlim va tuproq sharoitlaridan kelib chiqqan holda dorivor o‘simliklarni yetishtirishning | 2 |

Сканировано с CamScanner

| | | | |
|---|---|---|---|
| | | samarali usullarini tanlash va tashkil etish ishlarini o'rganish. 4. Dorivor o'simliklarni yetishtirishda qo'llaniladigan suv tejovchi texnologiyalar, sug'orish tartiblarining nazariy masalalarini o'rganish. Istiqbolli turlarni yetishtirishning agrotexnik usullarini ishlab chiqarishga tadbiq etish, yangi agrotexnologiyalarni takomillashtirish bo'yicha inovatsion ishlanmalar, ma'lumotlarni izlab topish va ishlab chiqarishda qo'llash. | |
| 22 | Sho'r yerlarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Sho'rlangan yerlarda tabiiy holda o'sishga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. 2. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash. 3. O'rtacha va kuchli sho'rlangan, qumli tuproqlarda, sizot suvlariga yaqin joylarda dorivor o'simliklarni yetishtirish uchun tuproqqa ishlov berish, vegetativ va generativ organlaridan ko'paytiriladigan turlarni aniqlash 4. Ekish muddatlari, me'yorlari, ko'chat ko'karuvchanligi va saqlanishini aniqlash | 2 |
| 23 | Botqoqlashgan va suvli muhitda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Botqoqlashgan tuproqlarda va suvli muhitda tabiiy holda o'sishga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. 2. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash. 3. Sun'iy ko'llar va hovuzlarni hamda suvda o'sadigan dorivor o'simliklarni ekishga tayyorlash 4. O'simliklarni qo'paytirish va yetishtirishda organik, mineral o'g'itlardan foydalanish. | 2 |
| 24 | Issiqxonalarda dorivor o'simliklarni yetishtirish texnologiyasi | 1. Issiqxonalarga moslashgan dorivor o'simliklarni botanik tasnifi. 2. O'simlik turlarini morfobiologik xususiyatlariga ko'ra muhitga moslashganligini aniqlash 3. Issiqxonalarda o'sadigan dorivor o'simliklarni ekishga tayyorlash. 4. O'simliklarni qo'paytirish va yetishtirishda organik, mineral o'g'itlardan foydalanish | 2 |
| | **Jami:**<br>**Jami 1-2- Modul bo'yicha** | | 24<br>48 |

## 4.2. Amaliy mashg'ulotlar

| Dars | Mavzular | Amaliy mashg'ulotlar rejasi | Amaliy mashg'ulot-lari soati |
|---|---|---|---|
| | | **1-MODUL** | |
| 1 | Babchi (*Psoralea corylifolia* L.) (o'zb. Yong'oq bargli oqquray) ni yetishtirish texnologiyasi. | 1. Babchi o'simligining sistematikasi va botanik tasnifi ***(Keys, Aqliy xujum)***. 2. Babchi o'simligini xalq xo'jaligida ahamyati ***(Keys, Aqliy xujum)***. 3. Babchi o'simligini yetishtirish texnologiyasi ***(Keys, Aqliy xujum)***. | 2 |
| 2 | Qalampir yalpiz - *Mentha piperita* L. ni yetishtirish texnologiyasi. | 1. Qalampir yalpiz o'simligining sistematikasi va botanik tasnifi ***(Keys, Aqliy xujum)***. 2. Qalampir yalpiz o'simligini xalq xo'jaligida ahamyati ***(Keys, Aqliy xujum)***. 3. Qalampir yalpiz o'simligini yetishtirish texnologiyasi ***(Keys, Aqliy xujum)*** | 2 |
